

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA EGRA XALQARO BAHOLASH DASTURINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Davlatova Saidaxon Tojimuxammadovna

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

dsaida1974@gmail.com

Xusanboyeva Madinabonu Shuxratjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalish 4-kurs talabasi

esonaliyevamm@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda EGRA xalqaro baholash dasturining pedagogik imkoniyatlari, uning o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashdagi ahamiyati, ta'lim sifatini monitoring qilishdagi roli, individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatlari hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, EGRA tizimining amaliy ahamiyati va uni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: EGRA, xalqaro baholash, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, pedagogik diagnostika, ta'lim sifati, funksional savodxonlik, innovatsion metodlar.

Abstract: This article scientifically discusses the pedagogical potential of the EGRA international assessment program in improving the quality of primary education, its importance in assessing students' reading literacy, its role in monitoring the quality of education, the possibilities of ensuring an individual approach, and its role in increasing the effectiveness of pedagogical activities. The practical significance of the EGRA system and the prospects for its integration into the national education system are also analyzed.

Keywords: EGRA, international assessment, primary education, reading literacy, pedagogical diagnostics, quality of education, functional literacy, innovative methods.

Kirish

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida sifat ko'rsatkichlarini xalqaro mezonlar asosida aniqlash, o'quvchilarning kompetensiyalarini baholash hamda ta'lim samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning intellektual rivojlanishida tayanch poydevor bo'lib xizmat qilgani sababli mazkur bosqichdagi ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish va takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xalqaro baholash dasturlari orasida EGRA dasturi alohida o'rin egallaydi.

EGRA — bu o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini og'zaki baholovchi diagnostik tizim bo'lib, u besh asosiy komponentni o'lchaydi: fonematik anglash, tovush va harf uyg'unligini tushunish, so'z boyligi, o'qish tezligi va matnni anglash darajasi. Mazkur dastur dastlab AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Tojikiston, Gana, Nigeriya, Keniya va Nepal kabi davlatlarda joriy etilgan. EGRA dasturi ilk bor rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish maqsadida joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda ko'plab davlatlar ta'lim tizimida qo'llanilmoqda.¹

Mazkur baholash vositasi orqali o'quvchilarning fonetik idroki, harf va tovushlarni farqlash, bo'g'inlab o'qish, ravon mutolaa qilish va matn mazmunini anglash kabi ko'nikmalari aniqlanadi. An'anaviy baholash tizimidan farqli ravishda EGRA o'quvchining faqat nazariy bilimini emas, balki amaliy ko'nikmalarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu bois mazkur tizim boshlang'ich ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

EGRA dasturining pedagogik imkoniyatlari juda keng bo'lib, avvalo u ta'lim jarayonida diagnostik yondashuvni shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchining aynan qaysi

¹ S.Davlatova. 2025. EGRA dasturi asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish metodikasi. Qo'qon universiteti

bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va shu asosda individual rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi.

Ikkinchidan, EGRA o'qituvchining metodik faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Agar sinfdagi ko'rsatkichlar past bo'lsa, pedagog o'z metodikasini qayta ko'rib chiqishi va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishi zarur bo'ladi.

Uchinchidan, EGRA natijalari asosida ota-onalar bilan hamkorlik kuchayadi. Ota-onalar farzandining o'qish darajasi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lib, uy sharoitida qo'shimcha yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi barcha fanlarni o'zlashtirishning asosini tashkil etadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri tushuna olsa, boshqa fanlardagi topshiriqlarni ham muvaffaqiyatli bajaradi. Shu sababli EGRA orqali o'qishdagi muammolarni erta aniqlash umumiy ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Mazkur dastur yordamida o'qituvchilar dars jarayonini differensiallashtirishi, kuchli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan alohida ishlash tizimini yo'lga qo'yishi mumkin. Bu esa inkluziv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini amalda qo'llashga yordam beradi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, EGRA joriy etilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning o'qish tezligi va matnni tushunish ko'rsatkichlari sezilarli ravishda yaxshilangan. Afrika, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarda EGRA natijalariga tayangan holda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va bu o'quvchilar natijadorligining oshishiga sabab bo'lgan.

“Early Grade Reading Assessment Toolkit, Second Edition” qo'llanmasi United States Agency for International Development (USAID) buyurtmasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, RTI International tomonidan tayyorlangan metodik manba hisoblanadi. Mazkur nashr EGRA tadqiqotini tashkil etish, o'tkazish va natijalarini tahlil qilish bo'yicha amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Qo'llanmada EGRA baholashining konseptual asoslari, test komponentlari (harf va tovushni aniqlash, so'z o'qish, matnni o'qish tezligi, tushunish savollari), ma'lumotlarni yig'ish metodikasi hamda natijalarni statistik qayta

ishlash mexanizmlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, baholovchilarni tayyorlash, tadqiqotini tashkil etish va monitoring jarayonini boshqarish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuv kuchayib bormoqda. EGRA dasturini qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida baholash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

EGRA dasturini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha pedagoglarning xalqaro baholash metodologiyasi bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi, metodik qo'llanmalar va texnik vositalarning yetishmasligi, natijalarni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanmaganligi ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammolarni hal qilish uchun pedagoglar malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, baholash bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va metodik bazani boyitish lozim.

Xulosa qilib aytganda, EGRA xalqaro baholash dasturi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. U o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlash, ta'lim jarayonini individuallashtirish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish va umumiy ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Kelgusida mazkur tizimning yanada keng joriy etilishi O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Savodxonlik bo'yicha baholash natijalari hisobotlari, 2022.

3. S.Davlatova. 2025. EGRA dasturi asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish metodikasi. Qo‘qon universiteti
https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1268
4. RTI International. (2016). Early grade reading assessment (EGRA) toolkit. RTI International.
5. USAID. (2015). EGRA implementation guide. USAID.
6. Gove, A., & Wetterberg, A. (2011). The early grade reading assessment: Applications and interventions to improve basic literacy. RTI Press.
7. UNICEF. (2018–2022). Early grade reading assessment country reports. UNICEF.
8. USAID Uzbekistan. (2021–2022). EGRA Uzbekistan early grade reading assessment report. USAID Uzbekistan.
9. USAID. (2022). The early grade reading assessment (EGRA) in Tajikistan: Retrospective briefing note. USAID.
10. RTI International. (2020). Report on the self-administered EGRA/EGMA pilot in Ghana (English). RTI International.
11. Abadzi, H. (2018). Teaching reading in early grades: A guide for practitioners. World Bank.
12. UNESCO. (2021). Monitoring literacy skills in early grades. UNESCO Institute for Statistics.
13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). Ta’limni rivojlantirish milliy strategiyasi – 2030. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.
14. USAID. (2019). Improving early grade reading outcomes in Central Asia. USAID.
15. Center for Evaluation of Education Quality. (2006). PIRLS 2006 publications.
http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06_pub.htm/